
Akademik litseyi o'quvchilari muzeyga sayohat qilishdi!

Akademik litsey 103- guruh o'quvchilari bugun Samarqand shahridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyiga kichik sayohat uyushtirishdi. Turkistonda jadidchilik harakati, jadidchilik harakati namoyondalari va ularning faoliyati haqida o'quvchilarga tushuncha va ma'lumotlar berildi.

Turkistonda ilm-fan va madaniyatning rivojlanish bosqichlari haqida ham so'z yurutildi, bunday kichik ekskursiyalar tashkil qilinishi o'quvchilar saviyasi va bilimini oshirishdagi eng samarali usullardan hisoblanadi.

